



## AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHING 01/2025 - SONLI BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

**Manzil:** "O'zsanoatqurilishbank" ATB  
binosi, Toshkent sh., Shahrizabz ko'chasi, 3-uy.

2025 yil 10 aprel  
**Ish vaqti:** 11.00-17.00

Bank Kengashi tomonidan 2025 yil 14 martda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB ustaviga binoan, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini masofadan elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz/> orqali o'tkazish to'g'risidagi 2025/09-sonli qarori qabul qilingan.

2025 yil 18 mart holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan bank aksiyadorlariga umumiy yig'ilish o'tkazish vaqti, joyi, kun tartibi to'g'risida xabar "Toshkent" RFB, Korporativ axborot yagona portali, bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan hamda aksiyadorlarga evote.uz platformasi orqali xabar yuborilgan. Shu bilan birga mazkur xabar "Xalq so'zi" respublika nashrining 2025 yil 18 martdagi 54 (8949)-sonida, "Narodnoe slovo" respublika nashrining 2025 yil 18 martdagi 54 (8898)-sonida hamda "Birja" iqtisodiy gazetasining 2025 yil 28 martdagi 103-104(3090-3091)-sonida chop etilgan.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 61-moddasi hamda Bank Kengashining qaroriga asosan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini tuzish sanasi 2025 yil 7 aprel deb belgilandi. Yig'ilishda mazkur sanaga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda amaldagi qonunchilikka asosan faqat oddiy aksiya egalari ovoz berish huquqiga ega.

2025 yil 7 aprel holatiga Bank ustav kapitali 4.628.941.927.804 (to'rt trillion olti yuz yigirma sakkiz milliard to'qqiz yuz qirq bir million to'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to'rt) so'mni tashkil qiladi va u quyidagi aksiyalarga bo'lingan:

- umumiy qiymati 4.621.911.927.804 (to'rt trillion olti yuz yigirma bir milliard to'qqiz yuz o'n bir million to'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to'rt) so'm bo'lgan nominal qiymati 19 (o'n to'qqiz) so'mlik 243.258.522.516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o'n olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiya;

- umumiy qiymati 7.030.000.000 (etti milliard o‘ttiz million) so‘m bo‘lgan nominal qiymati 19 (o‘n to‘qqiz) so‘mlik 370.000.000 (uch yuz yetmish million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya.

Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining vakolatli ekanligi (kvorum mavjudligi) bo‘yicha ma‘lumot <https://evote.uz> platformasidan olindi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining reestriga ko‘ra, 2025 yil 7 aprel holatiga aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga jami 243.258.522.516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o‘n olti) dona oddiy aksiya egasi bo‘lgan 8 699 nafar (sakkiz ming olti yuz to‘qson to‘qqiz) aksiyador kiritilgan.

Aksiyadorlar ro‘yxatining to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi va aksiyadorlar nomidan umumiy yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan vakillarning vakolatlari “eVOTE” – Elektron ovoz berish xizmati tomonidan tasdiqlandi va <https://evote.uz> platformasidan olingan ma‘lumotga ko‘ra, yig‘ilishda ishtirok etish uchun umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 233.100.565.573 (ikki yuz o‘ttiz uch milliard yuz million besh yuz oltmish besh ming besh yuz yetmish uch) dona yoki 95,82% foiziga egalik qiluvchi 14 (o‘n to‘rt) nafar aksiyador va ularning vakili elektron ro‘yxatdan o‘tganligi va bank aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi vakolatli ekanligi, ma‘lum qilindi. Shu bilan birga 6 (olti) nafar bankning imtiyozli aksiyaga ega aksiyador elektron ro‘yxatdan o‘tganligi ma‘lum bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 18 avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va Tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-283-sonli qaroriga asosan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ustav kapitalidagi o‘ziga tegishli odiiy ovoz beruvchi aksiya paketlari (200 240 766 051 dona yoki 82,31% foizi) bo‘yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalarini ishonchnoma asosida cheklanmagan muddatga Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berilgan. (Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga OYu-07/08-738-sonli ishonchnoma).

*<https://evote.uz> platformasidan olingan ma‘lumotlar ilova qilinadi.*

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun Bank Kengashi raisi – O.Isakov yig‘ilish raisi etib saylandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Ishchi a'zolari quyidagi tarkibda tuzildi:

Yig‘ilish hay'ati: O.Isakov (yig‘ilishga raislik qiluvchi).

Sanoq komissiyasi: D.Abdukadirov, X.Umarov, A.Vizer.

Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. 2023-yil 30-noyabrdagi Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishining 03/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2024-2026-yillarda rivojlanish strategiyasining maqsadli ko'rsatqichlariga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash.
2. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risida Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash va 2019-yil 28-iyundagi Bank aksiyadorlari yillik Umumiy yig'ilishining 01/2019-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risida Nizomni bekor qilish to'g'risida.
3. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash va 2023-yil 27-iyundagi Bank aksiyadorlari yillik Umumiy yig'ilishining 01/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomini bekor qilish to'g'risida.
4. KPI ko'rsatkichlaridan kelib chiqib "O'zsanoatqurilishbank" ATBning Boshqaruv Raisi va Boshqaruv Raisi o'rinbosarlariga belgilangan yil yakuni bo'yicha ish xaqi va mukofot miqdorini belgilash.
5. 2024-yil 20-martdagi Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishining 02/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida qarzdorlik evaziga bank balansiga mol-mulklarni qabul qilish hamda ularni sotish tartibi to'g'risida"gi Nizomga kiritiladigan o'zgartirishlarni tasdiqlash.
6. 2024-yil 28-iyundagi Bank aksiyadorlari yillik Umumiy yig'ilishining 03/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tashkiliy tuzilmasiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash.
7. Bankning "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvaraqlarida qayd etilgan kundan boshlab 5 yildan o'tgan muammoli qarzdorliklarni hisobdan chiqarish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi 2696-sonli Nizomiga asosan).
8. Bank Kengashining 3 nafar a'zosining vakolatlarini muddatidan avval tugatish to'g'risida.
9. Bank Kengashida bo'sh bo'lgan o'rinlarga yangi a'zolari saylash to'g'risida.



## QAROR QILDI:

1. 2023-yil 30-noyabrdagi Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishining 03/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2024-2026-yillarda rivojlanish strategiyasining maqsadli ko'rsatqichlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar tasdiqlansin **(1- ilova)**.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 225 303 ovoz

"yoqlayman"– 233 100 224 753 ovoz, "qarshiman" – yo'q, "betarafman"– 550 ovoz.

2. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risida Nizomi (yangi tahrirda) tasdiqlansin **(2- ilova)** va 2019-yil 28-iyundagi Bank aksiyadorlari Umumiy yig'ilishining 01/2019-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi to'g'risidagi Nizomi bekor qilinsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 225 303 ovoz

"yoqlayman"– 233 100 223 753 ovoz, "qarshiman" – yo'q, "betarafman"– 1550 ovoz.

3. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomi (yangi tahrirda) tasdiqlansin **(3- ilova)** va 2023-yil 27-iyundagi Bank aksiyadorlari Umumiy yig'ilishining 01/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomi bekor qilinsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

"yoqlayman"– 233 100 199 963 ovoz, "qarshiman" – yo'q, "betarafman"– 24 790 ovoz.

4. KPI ko'rsatkichlaridan kelib chiqib "O'zsanoatqurilishbank" ATBning Boshqaruv Raisi va Boshqaruv Raisi o'rinbosarlariga belgilangan yil yakuni bo'yicha ish xaqi va mukofot miqdorini belgilash haqidagi Bank Kengashining 2024 yil 19 sentyabrdagi 2024/26-sonli bayonnoma qarori tasdiqlansin **(4-ilova)**.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

"yoqlayman"– 233 100 199 963 ovoz, "qarshiman" – yo'q, "betarafman"– 24 790 ovoz.

5. 2024 yil 20 martdagi Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishining 02/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida qarzdorlik evaziga bank balansiga mol-mulklarni qabul qilish xamda ularni sotish tartibi to'g'risidagi Nizomga kiritiladigan o'zgartirishlar tasdiqlansin **(5- ilova)**.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

“yoqlayman”– 233 100 223 753 ovoz, “qarshiman” – 1000 ovoz, “betarafman” – yo‘q.

6. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin (**6-ilova**) va 2024 yil 28 iyundagi Bank aksiyadorlari Umumiy yig‘ilishining 03/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning tashkiliy tuzilmasi bekor qilinsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

“yoqlayman” – 233 100 224 753 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

7. Bankning “Ko‘zda tutilmagan holatlar” hisobvaraqlariga o‘tkazilgan va 5 yildan o‘tgan umidsiz kreditlari bo'yicha qarzdorliklarni hisobdan chiqarish haqidagi Bank Kengashining 2025 yil 7 fevraldagi 2025/03-sonli bayonnoma qarori tasdiqlansin (**7-ilova**).

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

“yoqlayman”– 233 100 199 963 ovoz, “qarshiman” – 24 790 ovoz, “betarafman”– yo‘q.

8. Bank Kengashi a'zolari Nazarov Azizxon Baxrom o'g'li va Gregg Skott Robins vakolatlari muddatidan oldin, ya'ni 2025 yil “10” apreldan tugatilsin. Bank Kengashi a'zosi Oksana Semenovna Sivokobilskaning vakolati muddatidan oldin, ya'ni 2025 yil “01” yanvardan (arizasiga asosan) tugatilsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 100 224 753 ovoz

“yoqlayman”– 233 100 224 753 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

9. Kumulyativ ovoz berish natijalariga ko'ra, Bank Kengashi yangi tarkibiga quyidagilar saylansin:

| t/r | Saylanuvchining familiyasi, ismi va sharifi.<br>Egallab turgan lavozimi                                                                                           | To'plangan<br>ovozlar soni |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|
| 1.  | <b>Isakov Odilbek Rustamovich</b> , mustaqil a'zo.<br><i>Infrasia Capital kompaniyaning tasischilardan biri (London, Buyuk Britaniya).</i>                        | 233.100.237.653            |
| 2.  | <b>Muxtarov Ulug'bek Xakimovich</b> , davlat organi vakili.<br><i>O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari.</i> | 233.100.237.653            |
| 3.  | <b>Atadjanov Murodbek Bekberganovich</b> , davlat organi vakili.<br><i>O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachilik qo'mitasi raisi.</i> | 233.100.237.653            |

|    |                                                                                                                                                                                             |                 |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|
| 4. | <b>Ayzup Yuliya Aleksandrovna</b> , mustaqil a'zo.                                                                                                                                          | 233.100.237.653 |
| 5. | <b>Chiladze Georgiy</b> , mustaqil a'zo.<br><i>Digital Area, Kuzatuv kengashi raisi (Tbilisi, Gruziya).</i>                                                                                 | 233.100.237.653 |
| 6. | <b>Tuinstra Ferdinand Villem</b> , mustaqil a'zo.<br><i>UAB Travel Union, Kuzatuv kengashi a'zosi - fintech startapi (Litva).</i>                                                           | 233.100.237.653 |
| 7. | <b>Axmedov Umid Mashrapovich</b> , mustaqil a'zo.<br><i>Tovar birjasi Ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilish bo'yicha direktor (Kopengagen, Daniya).</i>                              | 233.100.237.653 |
| 8. | <b>Djarbolova Saida Sherizatovna</b> , mustaqil a'zo.<br><i>Jusan bank mustaqil direktor, Risklarning boshqarish ko'mitasining raisi (Olmota, Qozog'iston Respublikasi).</i>                | 233.100.237.653 |
| 9. | <b>Ul'yanova Ol'ga Gennad'evna</b> , mustaqil a'zo.<br><i>Moody's Investor Service kompaniyasida (Moskva, Rossiya Federatsiyasi) 2022 yilgacha vise-prezident – bosh kredit mutaxassisi</i> | 233.099.834.816 |

**Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibi**



**H. Sattarov**

**Sanoq komissiyasi raisi**



**D. Abdukadirov**

Bayonnoma rasmiylashtirish sanasi “ 17 ” aprel 2025 yil.